IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
**Volume 23 Issue 01 AVGUST 2026**

# O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK INVESTITSIYALAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

**Poyonov Jamshid**
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
magistratura talabasi
E-mail: poyonovjamshid00@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22007718
Tel: +998 88 313 51 83

**ANNOTATSIYA**. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida ekologik yo‘naltirilgan investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning istiqbolli jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda xorijiy tajriba, jumladan OECD davlatlarida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar natijalari hamda Yevropa Ittifoqi va Xitoyning yashil transformatsiya bo‘yicha siyosati misolida energetika sohasiga qilinadigan ilmiy-tadqiqot xarajatlarining barqaror rivojlanishga qanday ta‘sir ko‘rsatishi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan qayta tiklanuvchi energetika loyihalari (Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi quyosh va shamol elektr stansiyalari), milliy huquqiy baza (PQ-436-son qaror), yashil moliya tizimining shakllanish jarayoni va raqamlashtirishning ekologik samaradorlikka ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida moliyaviy cheklovlar, milliy yashil taksonomiyaning mavjud emasligi va monitoring-hisobot-tekshirish (MRV) mexanizmining yetarlicha rivojlanmaganligi asosiy muammolar sifatida belgilandi. Ushbu natijalar asosida milliy yashil taksonomiyani shakllantirish, texnologik hamkorlikni kengaytirish va yashil moliya manbalarini ko‘paytirish yuzasidan amaliy takliflar ilgari surilgan.
**Kalit so ‘zlar:** ekologik investitsiyalar, innovatsion texnologiyalar, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, yashil moliya, raqamlashtirish, O‘zbekiston.

**АННОТАЦИЯ**. Настоящая статья посвящена изучению перспективных аспектов развития экологических инвестиций и внедрения инновационных технологий в Республике Узбекистан. В работе рассматривается зарубежный опыт, включая результаты эмпирических исследований, проведенных в странах ОЭСР, а также подходы Европейского союза и Китая к «зеленой» трансформации применительно к влиянию затрат на НИОКР в энергетике на устойчивое развитие. Кроме того, анализируются реализуемые в Узбекистане проекты возобновляемой энергетики (солнечная станция в Бухарской и ветровая станция в Навоийской областях), национальная правовая база (Постановление №ПП-436), процесс формирования системы зеленого финансирования и роль цифровизации в повышении экологической эффективности. По итогам исследования в качестве основных препятствий выделены финансовые ограничения, отсутствие национальной зеленой таксономии и недостаточная развитость механизма мониторинга, отчетности и верификации (MRV). На основе полученных результатов сформулированы практические предложения по формированию зеленой таксономии, расширению технологического партнерства и увеличению источников зеленого финансирования.
**Ключевые слова:** экологические инвестиции, инновационные технологии, зеленая экономика, устойчивое развитие, возобновляемая энергетика, зеленое финансирование, цифровизация, Узбекистан.

**ABSTRACT**. This article examines the prospects for developing ecological investments and introducing innovative technologies in the Republic of Uzbekistan. The study draws on

international experience, including empirical evidence from OECD member states, as well as the green-transition approaches of the European Union and China, to assess how R&D spending in the energy sector affects sustainable development outcomes. It further analyzes renewable energy initiatives currently underway in Uzbekistan (the solar plant in Bukhara region and the wind plant in Navoi region), the national legal framework (Presidential Resolution No. PQ-436), the emerging green finance system, and the contribution of digital technologies to environmental efficiency. The findings point to financial constraints, the lack of a national green taxonomy, and an underdeveloped monitoring-reporting-verification (MRV) mechanism as the principal barriers facing the sector. On this basis, practical recommendations are proposed for establishing a national green taxonomy, deepening technological partnerships, and diversifying green financing sources.

**Keywords:** ecological investments, innovative technologies, green economy, sustainable development, renewable energy, green finance, digitalization, Uzbekistan.

## KIRISH

Iqtisodiy o‘sishni ekologik omillar bilan uyg‘unlashtirgan holda ta‘minlash masalasi hozirgi kunda nafaqat ilmiy muhokamalarning, balki amaliy davlat siyosatining ham markaziy mavzularidan biriga aylandi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘plab tajribasi shuni ko‘rsatadiki, resurs sarfini kamaytirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li aynan ekologik yo‘naltirilgan investitsiyalar va zamonaviy texnologik yechimlarni joriy etishdir. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini davom ettirayotgan O‘zbekiston kabi mamlakatlar uchun bu masala alohida strategik ahamiyat kasb etadi, chunki mavjud ishlab chiqarish tuzilmasini modernizatsiya qilish bilan bir vaqtda atrof-muhitga ko‘rsatilayotgan salbiy ta’sirni ham kamaytirish zarur.

Mavzuga bag‘ishlangan ilmiy manbalarda texnologik yangilanishning barqaror taraqqiyotga qanday ta’sir ko‘rsatishi bo‘yicha yagona qarash mavjud emas. Jumladan, N. Sharman o‘z tadqiqotida iqlim texnologiyalarining bir davlatdan ikkinchisiga o‘tkazilishi shunchaki texnik almashinuv emas, balki bilim, kapital va imkoniyatlarni adolatli taqsimlashni nazarda tutadigan majburiyat ekanligini ta’kidlaydi [1]. Ushbu qarash ekologik investitsiya jarayonlarini tor texnik nuqtai nazardan emas, balki teng huquqli xalqaro hamkorlik kontekstida baholash zarurligiga ishora qiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu maqolaning maqsadi - O‘zbekistonda ekologik investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning bugungi holatini, xorijiy tajriba asosida istiqbolli yo‘nalishlarini hamda sohani rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan institutsional va moliyaviy omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iboratdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va statistik ma‘lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi, shuningdek me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmunini ochib beruvchi kontent-tahlil qo‘llanildi. Ishning axborot-empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, xalqaro reyting tashkilotlarining (xususan, Global Yashil Iqtisodiyot Indeksi) hisobotlari, shuningdek OECD a’zo davlatlari misolida CSARDL modeli asosida o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari tashkil qiladi [2]. Bundan tashqari, davlat byudjeti doirasidagi iqlim yo‘naltirilgan xarajatlar statistikasi qiyosiy tahlildan o‘tkazilib, mavjud dinamika aniqlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

***Energetika sohasidagi innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligi***

K. A. Khan va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqot energetika sektoridagi texnologik yangilanishlarning qanchalik iqtisodiy foyda keltirishini son bilan asoslab bergani jihatidan diqqatga sazovordir. OECD tarkibidagi 28 ta iqtisodiyot misolida qurilgan CSARDL modeli shuni ko‘rsatadiki, energetikaga yo‘naltirilgan R&D xarajatlarining har 1 foizlik o‘sishi barqaror rivojlanish indeksini uzoq istiqbolda taxminan 0,05 foizga yuqoriga siljitadi [2]. Bu raqam birinchi ko‘rinishda ahamiyatsizdek tuyulishi mumkin, biroq yillar davomida jamg‘arilib borgan holda, milliy iqtisodiyot miqyosida jiddiy strukturaviy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

O‘zbekiston misolida ekologik yo‘naltirilgan investitsiya va texnologiyalarga bo‘lgan zaruriyat bir qancha ichki va tashqi sabablar bilan izohlanadi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar ko‘rsatishicha, an’anaviy texnologiyalarning hali ham ustunlik qilishi, kerakli moliyaviy resurslarning cheklanganligi hamda innovatsion infratuzilmaning yetarlicha shakllanmaganligi mamlakatning barqaror rivojlanish yo‘lidagi asosiy g‘ovlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ekologik investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo‘lidagi to‘siqlarni ham to‘liq hisobga olish zarur. Xususan, moliyaviy cheklovlar hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda ya’ni yashil infratuzilmaga dastlabki investitsiyalar an’anaviy loyhalarga nisbatan ancha yuqori, ammo qaytim davri uzoqroq. Bu esa mavjud yo‘nalishga moliyaviy manbalarni jalb etish va sarflash jarayonini kechiktirmoqda. Shuningdek, zamonaviy yashil sertifikatlash tizimi va monitoring-hisobot-tekshirish (MRV) mexanizmi joriy qilinishi hali ham to‘liq shakillanmagan[3]

Ekologik investitsiyalarni moliyalashtirish masalasida yashil moliya ekotizimining rivojlanishi alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekistondagi yashil moliya bozori hali shakillanish bosqichida ekanligini, biroq bir qator muhim ilg‘or qadamlar qo‘yilayotganligini ko’rsatmoqda. Xususan, mamlakatning birinchi mustaqil yashil obligatsiyasini chiqarish, ESG standartlarini milliy moliya tizimiga tatbiq etish bo‘ycha boshlangan ishlar va xalqaro rivojlanish institutlari ya’ni Jahon banki, ADB, EBRD - bilan hamkorlikning kengayib borishi shular jumlasidandir[4].

**Milliy huquqiy baza va qayta tiklanuvchi energiya loyihalari**

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi nafaqat iqtisodiy rivojlanishning, balki insonlarning sog‘lom va baxtli hayot kechirishining ham asosiy sharti sifatida ko‘rilmoqda. Shuning uchun ham, davlat bu sohadagi huquqiy mexanizmlarni doimiy ravishda rivojlantirib bormoqda. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I. Karimov bu masalaga alohida e’tibor qaratib: “Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosadagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir”[5], - degan edi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov boshchiligida mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizdagi keng ko‘lamli ekologik strategiyalar va dasturlar amalga oshirila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Mamlakatdagi ekologik huquqning asosiy poydevori hisoblanadi. Konstitutsiyada har bir fuqaroning qulay atrof-muhitda yashash huquqi va tabiatni muhofaza qilish borasidagi majburiyatlari mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu konstitutsiyaviy tamoyillar keyinchalik bir qator mahim me’yoriy hujjatlar va maxsus qonunlar orqli rivojlantirildi. Xususan, 1992-yildagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi kabi qonunlar shu qatorda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ham aytib o‘tish keraki, O‘zbekiston xalqaro ekologik konvensiyalar va shartnomalarning faol ishtirokchisi hisoblanadi. Bu esa Mamlakatimizdagi milliy qonunchilkni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi, chuchuk suv

resurslarini muhofaza qilish va biologik xilma-xillikni saqlash borasidagi xalqaro majburiyatlar mamlakat ichiki siyosatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatib mavjud qonunchilikni shakillantirishda xalqaro standartlar talablaini ham inobatga olishni taqqazo etmoqdaMazkur yo‘nalish milliy qonunchilikda ham o‘z aksini topgan. Aniqrog‘i, Prezidentning 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori bilan 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish dasturi tasdiqlangan bo‘lib, unda bir qator o‘lchovli maqsadlar belgilangan: issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yilga nisbatan 35 foizga qisqartirish, elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 30 foizdan oshirish va sanoat tarmog‘ida energiya samaradorligini kamida 20 foizga ko‘tarish [6]. Bunday konkret ko‘rsatkichlarning mavjudligi o‘zi investorlar uchun ishonchlilik va bashoratlilik signali bo‘lib xizmat qiladi, natijada xorijiy va ichki kapital oqimlarini jalb etish osonlashadi.

Mamlakatimizdagi ekologik investitsiyalarning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida qayta tiklanuvchi energetika sohasi saqlanib qolmoqda. 2021-yildan boshlab bir qancha yirik miqyosli loyihalar hayotga tatbiq etila boshlandi - bularga Buxoro viloyatida quvvati 100 MVt bo‘lgan quyosh elektr stansiyasi hamda Navoiy viloyatidagi shamol elektr stansiyalari misol bo‘la oladi. Bunday loyihalar nafaqat energiya ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi, balki tashqi manbalarga qaramlikni kamaytiradi, mahalliy mutaxassislarning texnik ko‘nikmalarini oshiradi hamda yangi ish o‘rinlarini vujudga keltiradi.

Ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning ijtimoiy jihatlarini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. “Yashil iqtisodiyot” dasturini amalga oshirish o‘z navbatida insonlarning bandlik tarkibiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, yashil texnologiyalar sohasida yangi kasb turlari vujudga keladi, bu esa usha sohalarda yangi ish o‘rinlarini yaratib, istiqboli kadirlarning yangi bir guruhini shakillantirishni talab qiladi. Bu yo‘nalishda o‘rta va kichik biznesda ekologik innovatsiyalarni joriy etish orqali yangi bozorlarga chiqish imkoniga ega bo‘ladi. Davlat byudjeti xarajatlarida ekologik yo‘nalishlar ulushining oshishi ya’ni suv xo‘jaligi ekspluatatsiyasi, tabiatni muhofaza qilish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash kabilar ushbu ijtimoiy o‘lchovning amaliy ifodasi hisoblanadi[7]. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari 2020-yildagi 27,5 milliard so‘mdan, 2022-yilda 34,8 milliard so‘mga oshirilganli ushbu yo‘nalishdagi davlat ishtiroki sezilarli kuchayganidan dalolat beradi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tizimli ishlarnining kelgusidagi faoliyatida davlatning e’tibori har qachongidan ham kuchayishini ko‘rsatadi.

**Yashil moliya ekotizimi va raqamlashtirish**

Yashil moliya tizimining shakllanishi ekologik loyihalarni mablag‘ bilan ta’minlash nuqtai nazaridan muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda bu bozor hali dastlabki bosqichda bo‘lishiga qaramay, ijobiy siljishlar kuzatilmoqda: mamlakat birinchi marta mustaqil yashil obligatsiya chiqardi, milliy moliya tizimiga ESG mezonlarini joriy qilish borasida ishlar boshlandi, shuningdek Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (ADB) va EBRD kabi yirik xalqaro institutlar bilan hamkorlik kengaymoqda. Ammo milliy yashil taksonomiyaning ishlab chiqilmaganligi va ekologik hisobotlarning yagona standartga ega emasligi kapital oqimining o‘sishini cheklamoqda. Davlat byudjeti xarajatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, iqlim bilan bog‘liq umumiy xarajatlar 26 302,4 mlrd so‘mga (byudjetning 11,1 foizi) yetgan bo‘lsa-da, bevosita iqlim ta‘sirini kamaytirishga qaratilgan mablag‘lar atigi 612,7 mlrd so‘mni, ya’ni 0,3 foizni tashkil etadi [8]. Bunday keskin nomutanosiblik moliyaviy resurslarni oqilona qayta taqsimlashni va xususiy kapitalning faolroq jalb etilishini taqozo etadi.

Raqamli texnologiyalarning ekologik investitsiya jarayonlariga integratsiyalashuvi kundan-kunga chuqurlashib bormoqda. Aqlli tarmoqlar (smart-grid), IT yechimlari va elektron boshqaruv vositalarining qo‘llanilishi resurs sarfini kamaytirish, energiya iste’molini

optimallashtirish hamda ekologik monitoring sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Biroq bunday yechimlarni keng miqyosda joriy etish uchun moliyaviy nazorat organlari, tegishli vazirliklar va bozor sub'ektlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmini mustahkamlaydigan institutsional islohotlar zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"[9] ekologik siyosatni mamlakatning umumiy rivojlanish yo'nalishga moslashtiradi. Bu hujjat faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy strategiya bo'lib qolmasdan, u "yashil iqtisodiyot" va ekologik barqarorlik tamoyillarini yaxlit rivojlanishini ham namoyon qildi. Bu esa kelgusida mamlakatning ekologik sohada katta natijalari uchun poydevor vazifasini bajaradi.

**Xalqaro tajriba va reyting ko'rsatkichlari**

Xalqaro tashkilotlar xususan, BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) ning 2011-yilgi hisobotida yashil iqtisodiyot nafaqat foydali, balki ijtimoiy jihatdan adolatli bo'lishi kerak ekanligi alohida ta'kidlanmoqda. Ushbu qarashda tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish ekologik va ijtimoiy tenglikni ta'minlash, xususan, past uglerodli hamda resurslarni tejaydigan modelga o'tishning barcha ijtimoiy guruhlar uchun maqul bo'lishi zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan[10]. Shu vaqt mobaynida shakillangan makroiqtisodiy natijalar ya'ni yalpi ichki mahsulot, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad kabilar, atrof-muhitning yomonlashuviga sabab bo'lmaydigan hloatda bo'ladi. Buning natijasida esa, mavjud ko'rsatkichlarga Yashil iqtisodiyot sari yo'l tutayotgan davlatlar tajribasini o'rganish va undan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Yevropa Ittifoqining 2019-yildagi "Yashil bitim" dasturi hamda Xitoyning 2060-yilgacha uglerod neytralligiga erishish bo'yicha belgilagan yo'nalishi butun dunyo miqyosida bu sohaga ajratiladigan mablag'larni sezilarli darajada ko'paytirishni taqozo qilmoqda. Mavjud statistikaga asoslanib aytish mumkinki, 2025-yilda O'zbekiston Global Yashil Iqtisodiyot Indeksi bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi, MDH mintaqasida ikkinchi, jahon reytingida esa 13-o'rinni qo'lga kiritdi - bu ko'rsatkich mamlakat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning samara berayotganidan dalolat beradi [8].

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ekologik investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish salohiyati yuqori bo'lib, buning uchun quyidagi yo'nalishlarda maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

birinchidan, Yevropa Ittifoqining EU taxonomy tizimi va ICMA tashkilotining yashil obligatsiya tamoyillariga tayangan holda milliy yashil taksonomiyani ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim - bu investorlar uchun shaffoflik yaratadi va kapitalning ekologik loyihalarga oqib kelishini tezlashtiradi;

ikkinchidan, ishonchga sazovor xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash orqali texnologik sheriklik shaklini rivojlantirish, natijada sifatli va nisbatan arzon texnologiyalarni mamlakatga olib kirish imkoniyati kengayadi;

uchinchidan, imtiyozli kredit shartlari, soliq va boj yengilliklari orqali yashil moliya manbalarini kengaytirib, xususiy tadbirkorlik vakillarini ekologik loyihalarga faolroq jalb etish;

to'rtinchidan, monitoring-hisobot-tekshirish (MRV) mexanizmini va yashil sertifikatlash tizimini to'liq qonuniy asosda mustahkamlash;

beshinchidan, aholi orasida toza energiya texnologiyalaridan (jumladan, quyosh panellaridan) foydalanishni rag'batlantiruvchi ijtimoiy dasturlarni yanada kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy vositalarning yangilanishi, institutsional islohotlarning izchilligi, raqamli texnologiyalarning kengroq qamrab olinishi va malakali kadrlar salohiyatining oshishi - barchasi o'zaro uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim. Faqat shundagina

O‘zbekiston nafaqat mintaqada, balki xalqaro miqyosda ham yashil iqtisodiyotning ishonchli ishtirokchisi sifatida mavqeini mustahkamlashi mumkin bo‘ladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Sharman, N. (2022). Inter-State climate technologiya transfer under the UNFCCC: A benefit-sharing approach. *Review of European, Comparative & International Environmental Law*, 31(3), 435.
2. Khan, K. A. W., Zubair, A. O., Subhan, M., & Shah, M. I. (2025). From invention to progress: Energy technology innovation and sustainable development in OECD economies. PLOS ONE, 20(2), Article e0310104, 1-23.
3. Qodirjonova D. Q. (2025). Yashil iqtisodiyotning mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati. *Journal of international Scientific Research*, 2(3), 114.
4. Sarjanova, D. A. (2025). Advancing the green finance cosystem in Uzbekistan: Opportunities, policy, innovations, and future directions. *International Scientific-Elektronic Journal “Pioneering Studies and Theories”,* 1(7), 38.
5. Karimov, I. A. (1998). Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida (6-jild). Toshkent: O‘zbekiston, 110-b
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2030-yilgacha O ‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘ycha chora-tadbirlar to‘g‘risida* (PQ-436-son Qaror). Lex.uz milliy qonunchilik ma’lumotlar bazasi. https://lex.uz/docs/-6303230
7. Jumaniyozov, F. D. (2024). Yashil iqtisodiyot. *Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferinsiyasi materiallari*, 115-117.
8. Mubinaxon, O., & Kenjayeva, I. (2025). Global yashil iqtisodiyot va uning O‘zbekistondagi roli. *Markaziy Osiyo turizmni boshqarish va moliyalashtirish bo‘ycha innovatsiyalar jurnali*, 6(3), 723-730
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezizedintining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. (2022). *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi..* https://lex.uz/docs/5841063, Kirish qismi.
10. Usmonov, M. D., & Ilxomova, R. J. (2024). O’zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotni yaxshil rivojlantirishning ekologik va ijtimoiy shart-sharoitlari. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies,* 1(17), 108-110.